



**UDK: 81.373**

## **PARADIGMA VA SINTAGMA: MOLIYAVIY MATNLAR TARJIMASINING LINGVISTIK ASOSLARI VA METODIK YONDASHUVLARI TEXTS**

*Abdullayeva Shohida Norqulovna  
O‘zDJTU dotsenti  
shohi66@mail.ru*

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada paradigmatic va sintagmatic munosabatlarning lingvistik tabiatini va ularning moliyaviy matn tarjimasiga ta’siri o’rganiladi. Paradigma va sintagma tushunchalari til tizimining asosiy unsurlaridan biri bo‘lib, ularning o‘zaro bog‘liqligi so‘z birikmalarining semantik va sintaktik tuzilishini aniqlaydi. Tadqiqotda Ferdinand de Sossyur va boshqa tilshunoslarning nazariy qarashlari asosida paradigmatic va sintagmatic munosabatlarning mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillaridagi moliyaviy matnlar tahlil qilinib, tarjima jarayonida paradigmatic bog‘liqliklar va sintagmatic cheklovlar qanday shakllanishi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari moliyaviy leksikaning tarjimasida semantik moslik va uslubiy ekvivalentlikni ta’minlash muhimligini ko‘rsatadi.

**KALIT SO‘ZLAR:** paradigm, sintagma, moliyaviy matn, tarjima, lingvistika, semantika, sintaktik munosabat, leksik birlik, kontekstual tahlil, til nazariyasi

## **ПАРАДИГМА И СИНТАГМА: ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ПЕРЕВОДЕ ФИНАНСОВЫХ ТЕКСТОВ**

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье исследуется лингвистическая природа парадигматических и синтагматических отношений и их влияние на перевод финансовых текстов. Парадигма и синтагма являются фундаментальными элементами языковой структуры, определяющими семантическую и синтаксическую организацию словосочетаний. Основываясь на теоретических взглядах Фердинанда де Соссюра и других лингвистов, в работе рассматриваются принципы функционирования парадигматических и синтагматических связей. Кроме того, проводится анализ финансовых текстов на английском и узбекском языках, выявляя механизмы формирования парадигматических соответствий и синтагматических ограничений в процессе перевода. Полученные результаты подчеркивают важность обеспечения семантической точности и стилистического соответствия в переводе финансовой терминологии.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** парадигма, синтагма, финансовый текст, перевод, лингвистика, семантика, синтаксические отношения, лексическая единица, контекстуальный анализ, теория языка.

## **PARADIGM AND SYNTAGM: LINGUISTIC FOUNDATIONS AND METHODOLOGICAL APPROACHES IN THE TRANSLATION OF FINANCIAL**

**ABSTRACT:** This article explores the linguistic nature of paradigmatic and syntagmatic relations and their impact on the translation of financial texts. Paradigm and syntagm are fundamental elements of language structure, determining the semantic and syntactic organization of word combinations. Based on theoretical insights from Ferdinand de Saussure and other linguists, this study examines how paradigmatic and syntagmatic relations function within language. Additionally, financial texts in English and Uzbek are analyzed to illustrate the formation of paradigmatic connections and syntagmatic constraints in translation. The findings highlight the importance of semantic accuracy and stylistic equivalence in the translation of financial terminology.

**KEY WORDS:** paradigm, syntagm, financial text, translation, linguistics, semantics, syntactic relations, lexical unit, contextual analysis, language theory.

**KIRISH.** Tilning lug‘at boyligi va murakkabligi uning dinamikasida til birliklari o‘rtasidagi munosabatlar orqali belgilanadi. Bu munosabatlar morfologik, fonologik va so‘z yasalish qonuniyatlariga muvofiq nominativ funksiyani bajarib, leksik birliklarning paradigmatic va syntagmatic xususiyatlarini olib beradi. F. de Sossyur bu munosabatlarni quyidagicha ifodalaydi:”Bir tomondan, so‘zlar nutqda bir-biri bilan birlashib, tilning chiziqli xususiyatiga asoslangan munosabatlarga kirishadi. Bu esa ikki elementning bir vaqtida talaffuz qilinish imkoniyatini istisno qiladi. Ushbu elementlar nutq oqimida birin-ketin joylashadi. Shunday davomiylikka ega bo‘lgan birikmalarni sintagma deb atash mumkin. Demak, sintagma ikki yoki undan ortiq ketma-ket birliklardan iborat (masalan, qayta-o‘qish; hammaning qarshisida; inson hayoti; inson o‘limi; agar ob-havo yaxshi bo‘lsa, biz sayr qilamiz va hokazo)” “Boshqa tomondan, nutq jarayonidan tashqarida o‘zaro umumiy jihatga ega bo‘lgan so‘zlar xotirada birlashib, guruqlar hosil qiladi. Masalan, o‘qitish so‘zi ongda boshqa ko‘plab so‘zlar (o‘qitmoq, o‘rganmoq, tanaffus, ta’lim, ilm va boshqalar) ketma-ket qatorini tashkil etadi, chunki ular qandaydir belgilari bilan bir-biriga o‘xshashdir. Ushbu munosabatlar davomiylikka asoslanmagan. Bu munosabatlarni biz assotsiativ munosabatlar deb ataymiz”<sup>110</sup>.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.** **Paradigmatik munosabat**, bir tizimga kiruvchi birliklarning o‘zaro o‘xshashlik va farqlilik munosabatidir. Masalan, kelishiklarning "oldingi so‘zni keyingisiga bog‘lash" kabi umumiy xususiyati ularning o‘xshashligi, lekin ular orasidagi

---

<sup>110</sup> de Saussure, Ferdinand. Course in General Linguistics. Edited by Charles Bally and Albert Sechehaye, with collaboration of Albert Riedlinger. Translated by Wade Baskin. New York: McGraw-Hill, 1959. pp. 123–125.

grammatik tafovutlar esa farqlilik munosabatidir. Paradigma a’zolari teng qiymatli bo‘lib, sinonimik, antonimik yoki graduonimik (darajalanish asosida) tiplarda tasniflanadi.

**Sintagmatik munosabat** til birliklarining chiziqsimon, ketma-ketlik asosida birikish qobiliyatidir. Bu munosabat birliklarning o‘zaro bog‘lanish imkoniyatini belgilaydi. Masalan, [kitob] leksemasi "o‘qimoq" bilan birikib, sintaktik aloqada *kitob o‘qimoq* nutqiy hodisasini hosil qiladi.

Sintagmatik munosabat birliklarning potensial birikish imkoniyatini, sintaktik aloqa esa bu imkoniyatning nutqda ro‘yobini anglatadi. Shunday qilib, paradigmatic munosabat birliklarning vertikal (o‘zaro tanlov), sintagmatik munosabat esa gorizontal (birikish) aloqasini ifodalaydi<sup>111</sup>.

Munozarani umumlashtirib, Sossyur quyidagi fikrlarni keltiradi:

“Syntagmatik munosabat har doim mavjud (in praesentia): u aktual ketma-ketlikda birdek mavjud bo‘lgan ikki yoki undan ortiq elementga tayanadi. Aksincha, assotsiativ munosabat mavjud bo‘lmagan (in absentia) elementlarni potentsial, mnemonik qatorga birlashtiradi”<sup>112</sup> (de Sossyur, 1916).

**MUHOKAMA.** Paradigmatika — bu tilni tizimli o‘rganishning ikki jihatidan biri bo‘lib, til elementlari yoki birliklari o‘rtasidagi ikki turdagি munosabatlarni — paradigmatic va sintagmatik munosabatlarni aniqlash va qarama-qarshi qo‘yish orqali belgilanadi. Paradigmatika tilda mavjud bo‘lgan paradigmatic munosabatlarni, ularning tasnifini, amal qilish sohalarini aniqlash va shunga o‘xshash masalalarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limidir<sup>113</sup>.

Paradigmatika kengroq ma’noda til tizimining o‘zi, ya’ni paradigmalarning lisoniy sinflari yig‘indisi sifatida tushuniladi. U sintagmatika bilan qarama-qarshi qo‘yiladi, chunki sintagmatika til jarayoni va matn tushunchasiga yaqinroq.

Paradigmatik va sintagmatik munosabatlarning tilshunoslikdagi mavjudligi haqida ilk fikrlar A. Boduen de Kurtene va N.V. Krushevskiy ishlarida bildirilgan. Boduen til birliklarini taqqoslash va ularni ketma-ket almashtirishda "gorizontal" va "vertikal" munosabatlarni ajratib ko‘rsatgan. Krushevskiy esa yaqinlik va o‘xshashlik asosida yuzaga keladigan assotsiatsiyalar haqida fikr yuritgan. Krushevskiy, shuningdek, bu assotsiatsiyalar bir-biriga ta’sir qilishi va tilning rivojlanishini belgilashi haqidagi g‘oyani ilgari surgan.

Ushbu tadqiqotda sintagmatik ta’sir gipotezasi bosh so‘z va maqsad so‘zlar o‘rtasidagi kombinatsion darajadagi sintaktik va semantik cheklovlarini tahlil qiladi. Tadqiqotchilar sinov ishtirokchilarining baholashlari ushbu cheklovlar bilan qanday shakllanishini kuzatishni maqsad qilgan. Paradigmatik ta’sir esa bosh va maqsad so‘zlarning sintaktik va semantik xususiyatlari o‘rtasidagi uzuksizlikka intilish sifatida namoyon bo‘ladi. Bu gipotezaga ko‘ra, maqsad so‘zlarning grammatik toifasini baholash so‘ralganda, ishtirokchilarning mental

<sup>111</sup> Ne’matov H., Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari. – Toshkent, 2017.

<sup>112</sup> de Saussure, Ferdinand. Cours de linguistique générale. Edited by Charles Bally and Albert Sechehaye. Paris: Payot, 1916. pp. 122–124.

<sup>113</sup> ПАРАДИГМАТИКА • Большая российская энциклопедия – электронная версия. bigenc.ru. Дата обращения: 12 сентября 2021.. Бодуэн де Куртенэ, Иван Александрович // Новая иллюстрированная энциклопедия. – Кн. 3. Би-Ве. – М.: Большая российская энциклопедия, 2003. – С. 27–28. – ISBN 5-85270-195-5 (кн. 3), ISBN 5-85270-218-8.

xotirasidagi tegishli qoidalar va ma’nolar faollashib, ma’lum bir takrorlash yoki moslik holatini yuzaga keltiradi.

Paradigma lingvistik tushuncha sifatida barcha fanlarda qo‘llanadigan sistema tushunchasi bilan bog‘lanadi. Tadqiqotlarda ba’zi mavhum sistemalarning nusxasi mavjud bo‘lishi mumkin, boshqalari esa nusxasiz bo‘ladi. Masalan, ingliz va o‘zbek moliyaviy matnlari misolida talqin qilish mumkin. Masalan:

“Interest rate” bu o‘zbek tilidagi “*foiz stavkasi*” leksemasining prototipi hisoblanadi, ya’ni nusxa sifatida mavjud. Ammo “*moliya turlari*” yoki “*to‘lov turlari*” kabi mavhum kategoriyalarda ko‘pincha bitta konkret ifoda yoki nusxa yo‘q, chunki u tizimning o‘ziga xos birlashmalarini ifodalaydi.

- O‘zbekcha “*foyda*” va “*daromad*” so‘zleri ham “*sof moliyaviy natija*”ni ifodalaydi, ammo ularning o‘z tizimida farqli xususiyatlar mavjud. Mazkur nuqtai nazardan til birliklari tizimda birlashib, ularga ichki mikrosistemalar shakllantirish imkonini beradi. Shu tariqa, tizimdagagi birlik boshqasini eslatib, ma’nolar o‘rtasida bog‘lanish hosil qiladi.

Lisoniy paradigma haqidagi ilk tasavvurimizni shakllantirish uchun borliqdagi bir dalilga murojaat qilamiz. Kompyuter qulfini ochish uchun bir nechta turli kombinatsiyalarni sinab ko‘ramiz. Nihoyat, to‘g‘ri kombinatsiya kiritilib, kompyuter ochiladi. Parol kombinatsiyalari paradigmadagi unsurlar kabi bir-biriga muqobil tanlovlardir. Yoki muayyan tadbir uchun mos kiyim tanlashda turli variantlarni (kostyum, ko‘ylak, jinsi) sinab ko‘ramiz. Tadbirning xarakteriga mos keladigan kiyim — mazkur paradigma ichida to‘g‘ri tanlangan elementdir.

Lisoniy paradigma — umumiyligi xususiyatlarga ega, bir lisoniy sathga mansub bo‘lgan, o‘zaro paradigmatic munosabatlarni shakllantiruvchi lingvistik birliklar tizimi. Paradigma o‘z ichida bir-biriga o‘xshash va qarama-qarshi belgilarni mujassam etib, tanlov imkoniyatlarini beradi. Paradigmaga kiruvchi birliklar o‘zaro asosiy va paradigmatic munosabatlarni shakllantiradi, bu munosabatlar til tizimida assotsiativlik, kontekstga moslik va almashinish qobiliyatini ifodalaydi. Ferdinand de Sossyurning ta’kidlashicha, paradigmatic munosabatlar til birliklari uchun eng asosiy lingvistik bog‘lanishdir, chunki ular tilning ichki tuzilmasidagi tanlov imkoniyatlarini belgilaydi. Ushbu munosabatlar paradigmadagi birliklarning mazmuniy, strukturaviy va funksional jihatdan bir-birini to‘ldirishi va o‘zaro farqlanishi orqali aniqlanadi<sup>114</sup>.

1). Paradigma doirasida bir birlik tilga olinganda, odatda ushbu paradigmaga tegishli boshqa elementlar ham esga tushadi. Masalan, bir kelishik shakli eslatilganida, shu kelishik sistemasi tarkibidagi boshqa shakllar ham xotirada jonlanadi. Xuddi shuningdek, bir ma’nodosh so‘z tilga olinganda, u ma’nodoshlik qatoriga kiruvchi boshqa so‘zlarni ham o‘ziga bog‘laydi. Bu jarayon tildagi paradigmatic munosabatning namoyonidir. Jumladan:

<sup>114</sup> de Sossyur, F. (1959). Umumiyligi tilshunoslik kursi (W. Baskin tarj., C. Bally va A. Sechehaye tahriri ostida). Philosophical Library. (Asarning asl nashri 1916-yilda Payot tomonidan chop etilgan). 120-123-betlar

**Paradigma munosabati:** "revenue" so‘zi tilga olinishida, uning tizimdagи boshqa a’zolari ("profit," "income") ongda jonlanadi. Shunga o‘xhash, "daromad" so‘zi ham "foyda" va "xarajat"ni esga soladi. Ushbu birliklar o‘zaro paradigmatic bog‘lanish orqali tizimga birlashadi.

Ingliz tilidagi "revenue" bilan o‘zbekcha "daromad" bir xil paradigmatic rol o‘ynaydi. Ularning mazmuniy paradigmasi ichki iqtisodiy kategoriyalarni qamrab oladi, masalan:

"Revenue" <-> "Profit" <-> "Cost"

"Daromad" <-> "Foyda" <-> "Xarajat"

Ingliz tilida "revenue," "income," va "profit" atamalari o‘rtasida semantik nuans mavjud (ya’ni, "revenue" umumiyl daromadni anglatadi, "profit" esa xarajatdan keyingi foyda). Agar "profit" (foyda) so‘zi ishlatsa, "revenue" (daromad), "cost" (xarajat), va "margin" (foyda marjas) kabi so‘zlar semantik bog‘liq elementlar sifatida esga tushadi.

Masalan: "*The company’s profit has increased significantly this quarter.*"

Ushbu kontekstda "profit" so‘zi ishlatalganda, "revenue" (foyda manbasi) va "cost" (xarajatlar) kabi moliyaviy birliklar bilan paradigmatic bog‘lanish yuzaga keladi.

2) muayyan nutq sharoiti uchun o‘zaro paradigmatic munosabatda turgan birlikdan, ya’ni paradigma a’zolaridan bittasi tanlanishi. Kredit shartlari kontekstidan misol bilan asoslaymiz:

Kredit olish shartlarini muhokama qiluvchi matn.

Paradigma: "Loan," "Credit," "Debt," "Mortgage."

Tanlov: "Loan" (qarz) ishlataladi, chunki bu umumiyl tushunchani ifodalaydi.

Ingliz tilida matn: "*The bank offers loans with a fixed interest rate for small businesses.*"

Bu jumlada "Loan" tanlandi, chunki bu yerda umumiyl qarz tushunchasi muhim, "Mortgage" esa faqat ko‘chmas mulk uchun ishlataladi va kontekstga mos emas.

Shunda uxshash misollarni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mungkin. Qaring (jadval).

#### Jadval

#### Til Paradigmalarini va Tanlov Jadvali"

Kontekst	Paradigma	Tanlov	Matn	Izoh
Moliyaviy Hisobot	Income, Earnings, Profit, Net income	Net income	"The company reported a 15% increase in net income for the fiscal year."	"Net income" xarajatlar va soliqlar chiqarilgandan keyin qolgan sof daromadni ifodalaydi.
Kredit Shartlari	Loan,Credit, Debt, mortgage	Loan	"The bank offers loans with a fixed interest rate for small businesses."	"Loan" umumiyl qarz tushunchasini bildiradi, "Mortgage" faqat ko‘chmas mulkka tegishli, shuning uchun mos emas.

Bozor Tahlili	Market share, Revenue, Sales, Growth	Market share	"The company's market share grew by 5% over the last quarter."	"Market share" bozor ulushi tahlil qilinayotgan kontekstga mos tushadi, boshqa terminlar bunday ma'lumotni ifodalay olmaydi.
Xodimlar Ish Haqi	Salary, Wages, Compensation, Income	salary	"The average salary of the employees has increased by 10% this year."	"Salary" doimiy ish haqi haqida ma'lumot beradi, "Wages" esa soatlik ish haqi bilan bog'liq bo'lib, bu kontekstda mos emas.

R. E Asherni fikricha syntagmatik munosabatlар matн yoki gap doirasida birgalikda uchraydigan so‘zлar o‘rtasidagi semantik bog‘lanishni ifodalaydi<sup>115</sup>. Hjørland (2014) paradigmatic munosabatlarning ahamiyatini belgilab, ularni quyidagicha ta'riflaydi: "Paradigmatika birikmalar ichida o‘zaro bog‘liqliklarni emas, balki til birliklarining bir-birini almashtirish imkoniyatini ko‘rsatadi. Ushbu munosabatlар, asosan, tilda leksik, morfologik va semantik o‘xshashliklarga asoslanadi. Paradigmatik munosabatlар esa bir xil kategoriya mansub so‘zlarni bir-biriga o‘rinbosar qilish imkoniyatini ta’minlaydi<sup>116</sup>.

Syntagmatik munosabatlар esa, so‘zlarning bir-biriga nisbatan joylashishi va bir matн yoki gap doirasida birga qo‘llanishini ifodalaydi. Masalan, "**aktivlar**" va "**bilan bog‘liq risklar**" kabi iboralar bir gapda ishlatilganda, ular birgalikda moliyaviy holatni tushuntirishga xizmat qiladi va syntagmatik munosabatni namoyish etadi. Shu tarzda, "**aktivlar**" va "**majburiyatlar**" tushunchalari bir vaqtning o‘zida paradigmatic va syntagmatik munosabatlarga ega bo‘lishi mumkin, bu esa moliyaviy tahlil va hisobotlarda ularning ko‘p qirralilagini ko‘rsatadi. Shunday bo‘lsa-da, so‘zлar bir vaqtning o‘zida paradigmatic va syntagmatik munosabatlarga ega bo‘la oladimi degan savolni ko‘rib chiqish qiyinchilik tug‘diradi. Chunki bu holatda tushunchalar bir-biriga bog‘liq holda (syntagmatik), ammo bir xil semantik kategoriya doirasida o‘rinbosar bo‘lish imkoniyatiga ham ega bo‘lishi kerak. Bu masala quyidagi ilmiy dalillarga asoslanadi:

M.W.Evens<sup>117</sup> va boshqalar (1980) paradigmatic munosabatlarning syntagmatik jihatdan ifodalanishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bu, ayniqsa, leksik tahlillarda so‘zlarning o‘zaro munosabatini aniqlashda muhimdir.

<sup>115</sup> Asher, R. E. The Encyclopedia of Language and Linguistics. Oxford: Pergamon Press, 1994.

<sup>116</sup> Hjørland B. (2015), Are relations in thesauri “context-free, definitional, and true in all possible worlds”? Journal of the Association for Information Science and Technology, 66: 1367–1373. doi: 10.1002/asi.23253

<sup>117</sup> Evans, M. W. (1980). Lexical-semantic relations: A comparative survey (Vol. 34). Linguistic Research

S. Jones<sup>118</sup> (2002) o‘z tadqiqotida, paradigmatic bog‘langan sifatlar ko‘pincha bir xil gap ichida bog‘lovchi vositalar bilan birga ishlatalishini kuzatgan. Bu, aynan, ikki turdagi munosabatning bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishiga misol bo‘la oladi.

Bu yondashuvlar til birliklari orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu qarashlar, ayniqsa, leksik tahlilda muhimdir, chunki so‘zlar va iboralar orasidagi semantik va struktural bog‘lanishlarni aniqlashda paradigmatic va syntagmatic munosabatlarning ahamiyati katta. Ushbu yondashuvlar moliyaviy matnlar tahlilida ham qo‘llanilishi mumkin, chunki bunday matnlar murakkab mantiqiy va semantik munosabatlarni ifoda etadi. Quyida olimlarning ushbu qarashlariga mos jumlalar va ularning tahlillari keltiriladi.

Ingliz tilida: *The company’s revenue increased significantly, yet its operational costs also rose.*" (Syntagmatic bog‘lanish: bir gapda qarama-qarshi fikrlar orqali aniqlanadi.)

Tarjimasi: "*Kompaniya daromadi oshdi, biroq xarajatlar ham keskin ko‘paydi.*"

(Syntagmatic bog‘lanish: qarama-qarshi mazmunni bir gapda ifodalaydi.)

Ingliz tilida: "*Investors prefer stable returns; hence, low-risk bonds are often more attractive.*"

(Paradigmatic bog‘lanish: investorlarning tanlovi orqali turli moliyaviy vositalar bilan bog‘lanadi.)

Tarjimasi:: "*Investorlar barqaror daromadlarni ma’qul ko‘radi, shu sababli xavfi past bo‘lgan obligatsiyalar afzalroq.*"

(Paradigmatic bog‘lanish: investorlarning afzallikkari orqali ko‘rsatiladi.)

Ingliz tilida: "*During economic downturns, companies either cut costs or restructure their operations.*"

(Ikki turdagi bog‘lanish: tanlov (paradigmatic) va sabab-oqibat (syntagmatic) birga ifodalanadi.).

Tarjimasi: "*Iqtisodiy tanazzul davrida kompaniyalar xarajatlarni qisqartirish yoki o‘z faoliyatini qayta tashkil etish yo‘llarini tanlaydi.*"

(Ikki turdagi bog‘lanish: tanlov (paradigmatic) va sabab-oqibat (syntagmatic).)

Misol tahlilga ko‘ra paradigmatic bog‘lanish, bir xil funksional rolni bajaruvchi elementlar o‘rtasidagi munosabat orqali aniqlanadi. Masalan, *investorlar* misolida, ular bir nechta tanlovnı (*yuqori xavfli yoki xavfi past obligatsiyalarni*) bir vaqtning o‘zida baholaydi. Bu M.W. Evensning fikriga mos keladi, chunki paradigmatic munosabatlar bir xil gap doirasida ifodalanishi mumkin.

Syntagmatic bog‘lanish esa so‘z yoki jumlalar ketma-ketligidagi mantiqiy izchillikni ko‘rsatadi. Masalan, *daromad va xarajatlarning* birgalikdagi tahlili (bir gapda qarama-qarshi ma’nolarni ifodalash) Jonesning kuzatgan qarashlariga to‘g‘ri keladi.

<sup>118</sup> Jones, S. (2003). Antonymy: a corpus-based perspective. Routledge.

Amaliy kuzatuvlar natijasiga ko`ra esa Enguix, Rapp va Zock<sup>119</sup> (2014) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar ko`rsatishicha, sintagmatik munosabatlarga asoslangan grafiklar tuzishda ba`zi so‘zlar paradigmatic jihatdan ham bog‘langanligi aniqlangan. Bu hodisa lingvistik hodisalarning o‘zaro murakkabligini tasdiqlaydi. Masalan, "*foyda*" va "*daromad*" paradigmatic jihatdan o‘rnbosar bo‘lishi mumkin, chunki ikkalasi ham moliyaviy natija kategoriyasiga kiradi. Shu bilan birga, "*foyda oshishi*" yoki "*daromad oshishi*" iboralari gapda syntagmatik munosabatlarni ifodalaydi. Ushbu kontekstda, "*foyda*" va "*daromad*" tushunchalari bir vaqtning o‘zida paradigmatic va syntagmatik munosabatlarga ega bo‘lishi mumkin. Bu holat, moliyaviy matnlarda tushunchalar o‘rtasidagi murakkab aloqalarni tushunishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, semantik tahlil va iqtisodiy xulosa chiqarishda samarali foydalilanadi. Misol uchun, moliyaviy hisobotda "*daromad oshishi*" so‘zini "*foyda oshishi*" so‘zi bilan almashtirish mumkin, lekin bu tushunchalar birgalikda ishlatilganida kengroq iqtisodiy kontekstni ifodalaydi. Jumladan;

Ingliz tilida: *The increase in revenue often leads to higher profits, but these terms should not be confused as interchangeable in every context.*"

("Revenue" va "profit" paradigmatic o‘rnbosar bo‘lishi mumkin, lekin gapda syntagmatik munosabatda ishlatiladi).

Tarjimasi: "*Daromadning oshishi ko‘pincha foyda oshishini ta’minlaydi, lekin bu tushunchalarni har doim tenglashtirib bo‘lmaydi.*"

("*Daromad*" va "*foyda*" paradigmatic jihatdan bog‘liq, lekin gapda ular syntagmatik munosabatni hosil qiladi).

Ingliz tilida: *"While revenue growth indicates market expansion, profit growth signifies operational efficiency."*

(Bu yerda "*revenue growth*" va "*profit growth*" paradigmatic jihatdan aloqador, lekin birgalikda iqtisodiy natijalarni ko‘rsatadi).

Tarjimasi: "*Daromadning o‘sishi bozor kengayishini bildirsa, foydaning o‘sishi operatsion samaradorlikni ko‘rsatadi.*"

(Tahlil: Bu yerda "*daromad*" va "*foyda*" paradigmatic jihatdan aloqador, lekin iqtisodiy matn ichida kengroq kontekstni ifodalaydi).

Ingliz tilida: *"The company's profits grew by 15%, and this was supported by a 10% increase in revenue."*

("*Profits*" va "*revenue*" o‘zaro syntagmatik bog‘langan, lekin iqtisodiy tushunchalar paradigmatic kontekstda ham o‘rnbosar bo‘la oladi).

Tarjimasi: "*Kompaniyaning foydasi 15% ga o‘sdi, bunga daromadning 10% ga oshishi yordam berdi.*"

<sup>119</sup> Bel-Enguix, G., Rapp, R. and Zock, M. (2014) A Graph-Based Approach for Computing Free Word Associations, Proceedings of LREC 2014, Ninth International Conference on Language Resources and Evaluation, 3027-3033.

(Tahlil: "Daromad" va "foyda" tushunchalari o‘zaro syntagmatik bog‘langan, lekin paradigmatic jihatdan turlicha iqtisodiy ma’no beradi).

Demak, paradigmatic jihatdan "daromad" va "foyda" tushunchalari moliyaviy natija kategoriyasiga kirib, o‘rinbosar bo‘la oladi. Masalan, moliyaviy hisobotda "daromad" o‘rnida "foyda" so‘zidan foydalanish mumkin, lekin ular birgalikda ishlatilganda aniqroq iqtisodiy tasvirni beradi.

Syntagmatik bog‘lanishga ko‘ra "daromad oshishi" va "foyda oshishi" kabi iboralar gapning strukturasida ketma-ket joylashib, bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega. Ushbu yondashuv murakkab iqtisodiy munosabatlarni ifodalashda va aniq xulosa chiqarishda muhim.

Cruse o‘zining "Lexical Semantics" asarida absolyut sinonimlar haqida quyidagicha fikr bildiradi: " Haqiqiy absolyut sinonimlar, ya’ni barcha kontekstlarda ma’no, qo‘llanish chastotasi yoki konnotatsiya jihatidan hech qanday farq qilmasdan bir-birini to‘liq almashtira oladigan so‘zlar tabiiy tillarda juda kam uchraydi." <sup>120</sup>(Cruse, 1986: 270). Bu shuni anglatadiki, absolyut sinonimlar nazariy jihatdan mavjud bo‘lsa-da, amaliy tilda ularning mavjudligi deyarli kuzatilmaydi. Chunki har bir so‘z o‘ziga xos semantik, stilistik, yoki pragmatik farqlarga ega bo‘ladi.

**Absolyut sinonimlar** tilshunoslikda kam uchraydi, chunki so‘zlar odatda semantik yoki stilistik jihatdan farqlanadi. Biroq, texnik sohalarda, masalan, moliya va iqtisodiyotda, terminologik sinonimlik nisbatan ko‘proq uchrashi aniqlanadi. Masalan: **Revenue / Income**. Har ikkisi "daromad" degan ma’noni anglatadi.

Ingliz tilida: "*The company's annual revenue increased by 10%.*"

Tarjimasi: *Kompaniyaning yillik daromadi 10% ga oshdi.*

Ingliz tilida: "*The firm's income depends on its customer base.*"

Tarjimasi: *Firma daromadi uning mijozlar bazasiga bog‘liq.*

**Revenue** moliyaviy hisobotlarda, korporativ daromadlarni ko‘rsatishda ishlatiladi.

**Income** esa kengroq qo‘llaniladi, jumladan, shaxsiy moliyaviy daromadlarni ifodalashda. Bu usullar absolyut sinonimlikning ko‘p hollarda cheklanganligini ko‘rsatadi. Jumladan: **Profit / Earnings**. Har ikkalasi "foyda" degan ma’noni bildiradi.

Ingliz tilida "*The profit margin has significantly grown this quarter.*"

Tarjimasi: *Ushbu chorakda foyda marjasи sezilarli darajada oshdi.*

Ingliz tilida "*The company's earnings report will be published next week.*"

Tarjimasi: *Kompaniyaning foyda hisobotlari keyingi hafta e’lon qilinadi.*

**Profit** aniq moliyaviy foydani ifodalasa, **earnings** kengroq, jumladan, soliqlar yoki boshqa xarajatlardan oldin olingan foydani ifodalaydi.

**Expenditure / Expense.** Har ikkisi "xarajat" degan ma’noni anglatadi.

Ingliz tilida: "*The annual expenditure on research has doubled.*"

Tarjimasi: *Tadqiqotga yillik xarajat ikki baravar oshdi.*

<sup>120</sup> Cruse, D. A. (1986). Lexical Semantics. Cambridge University Press. 270 b: Absolyut sinonimlar haqidagi asosiy muhokama. DOI yoki havola: <https://doi.org/10.xxxx/>

Ingliz tilida "*Travel expenses must be reimbursed by the company.*"

Tarjimasi: *Sayohat xarajatlari kompaniya tomonidan qoplanishi kerak.*

*Expenditure* ko‘pincha katta miqqosdagi yoki uzoq muddatli xarajatlar haqida gapiradi. *Expense* esa kundalik yoki odatiy xarajatlarni ifodalaydi. Ta`kidlash joizki, D. Cruse absolyut sinonimlarning nazariy mavjudligini e’tirof etadi, ammo amaliy jihatdan ularning kam uchrashishini ta’kidlaydi. Bizni holatimizda biz olimning ushbu fikriga qo’shilmaymiz. Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy terminlar ko‘pincha texnik sohalarda sinonim bo‘lib ishlatiladi, ammo har bir so‘zning o‘ziga xos stilistik yoki kontekstual farqi mavjud. So‘zlarning ishlatilishi ularning semantik va pragmatik xususiyatlariga bog‘liq. Bu tilning murakkabligi va boyligini aks ettiradi.

**Kontekstual sinonimlar** tilshunoslikda muhim kontsept bo‘lib, ularning ishlatilishi asosan til birliklarining ma’nosini tushunishga va tilning dinamik imkoniyatlarini o‘rganishga yordam beradi. Kontekstual sinonimlar tilshunoslikning muhim sohasi bo‘lib, ular tilning o‘zgaruvchan va moslashuvchan tabiatini ochib beradi. Bu tushuncha tarjimonlar, yozuvchilar va lingvistlar uchun foydali vositadir.

Kontekstual sinonimlar — ma'lum bir kontekstda yoki vaziyatda bir-birini almashtiruvchi, lekin boshqa kontekstda aynan bir xil ma'noni bermaydigan so‘zlar. John Lyonsning (1968) "Introduction to Theoretical Linguistics" kitobida qayd etilganidek, bunday sinonimlar faqat kontekstga bog‘liq ravishda sinonim sifatida qaraladi. Lyons bu borada quyidagilarni ta’kidlaydi: "Kontekstual sinonimlar asosan lingvistik yoki vaziyatga bog‘liq bo‘ladi. Ularning o‘rinbosarlik darajasi kontekstdagi o‘zgarishlarga qarab farqlanadi."<sup>121</sup> J. Lyonsning qarashlari zamonaviy semantika tadqiqotlari bilan hamohang. Masalan, Fillmore kontekst va ma’no tizimini o‘rganganida, kontekstual sinonimlarning kommunikativ samaradorlikka ta’sirini o‘rganadi. U bu borada shunday deydi: "So‘zlar o‘z ma’nosini faqat muayyan doiralar yoki kontekstlar ichida oladi va bu ba’zan ularni sinonim qiladi, ammo bunday sinonimiya juda shartli hisoblanadi"<sup>122</sup>.

Ingliz tilida: "*The company’s financial outcome this quarter was worse than expected, leading to serious consequences for investors.*"

Tarjimasi: "*Kompaniyaning ushbu chorakdagagi moliyaviy natijasi kutilganidan yomonroq bo‘ldi va bu investorlar uchun jiddiy oqibatlarga olib keldi.*"

Bu misolda "*outcome*" va "*consequences*" so‘zlar kontekstda sinonim bo‘lib ko‘rinadi, lekin ma’no jihatdan farqlidir. "*Outcome*" kompaniyaning moliyaviy ko‘rsatkichlarini bildirsa, "*consequences*" investorlar uchun keltirgan muammolarni ifodalaydi. O‘zbek tilidagi tarjimada ham "*natija*" va "*oqibat*" so‘zlar mos ravishda kontekstual sinonim hisoblanadi

<sup>121</sup> John Lyons, Introduction to Theoretical Linguistics, Cambridge University Press, 1968, 453-bet.

<sup>122</sup> Fillmore, C. (1982). Frames and the Semantics of Understanding. *Linguistic Inquiry*, p. 48.

Ingliz tilida: "*The recent changes in tax policy had a significant effect on small businesses, with noticeable results in their profitability.*"

O‘zbek tilida: "*So‘nggi soliq siyosatidagi o‘zgarishlar kichik bizneslarga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi va ularning rentabelligida natijalar sezildi.*"

Bu misolda "*effect*" va "*results*" so‘zlari kontekstual sinonim sifatida ishlatilgan. "*Effect*" so‘zi umumiy ta’sir yoki o‘zgarishni anglatadi, "*results*" esa ushbu ta’sirning o‘lchash mumkin bo‘lgan natijalarini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida "*ta’sir*" va "*natija*" so‘zlari bir-birini almashtirishi mumkin, lekin ularning semantik farqlari mavjud. "*Ta’sir*" sababni bildirsa, "*natija*" ushbu sababning oqibatidir. Bu misol J. Lyonsning qarashlarini yanada to‘liq yoritadi: kontekstual sinonimlar faqat kontekst doirasida o‘rinbosarlik qobiliyatiga ega.

Ingliz tilida: "*The reduction in interest rates brought a notable impact on consumer spending, with measurable outcomes in retail sales.*"

O‘zbek tilida: "*Foiz stavkalarining pasayishi iste’molchilar xarajatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi va chakana savdo hajmlarida o‘lchanadigan natjalarga olib keldi.*"

Ingliz tili: "*The downturn in the market was labeled as alarming by experts, though others saw it as manageable.*"

Tarjimasi; "*Bozordagi pasayish mutaxassislar tomonidan tashvishli deb baholandi, ba’zilari esa buni boshqariladigan holat sifatida ko‘rdi.*"

Alarming hissiyot bilan boyitilgan va xavotir uyg‘otadi, *manageable* esa imkoniyat va nazoratga ishora qiladi. O‘zbek tilida tashvishli xavfni anglatadi, boshqariladigan esa umid va nazorat imkoniyatini bildiradi. Bu paradigmatic munosabatning hissiy va ijtimoiy rang-baranglikni aks ettirishini ko‘rsatadi.

Demak, emotsional sinonimlar paradigmatic tizimda hissiy rang-baranglikni ta’minlaydi va sinonimlar hissiy ta’sirni boshqarishga imkon beradi. Kommunikativ maqsadga erishishni osonlashtiradi. Sinonim tanlovi tinglovchining yoki o‘quvchining reaktsiyasiga mos keladi. Nutq estetikasini oshirib, ijtimoiy va hissiy kontekstga mos so‘zлarni tanlash imkonini beradi. Moliyaviy-iqtisodiy matnlardagi emotsional sinonimlar hissiy yuk va ton jihatidan turli qarashlarni aks ettiradi, bu esa nutqni aniqlashtiradi va boyitadi. Paradigmatic munosabat ularning tizim doirasida bir-birini qanday to‘ldirishini va kontekstdagi rolini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

### **FOYDALALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. Cruse, D. A. *Lexical Semantics*. Cambridge University Press, 1986.
2. de Saussure, Ferdinand. *Course in General Linguistics*. Open Court Publishing, 1916.
3. Enguix, Valeria, Rapp, Reinhard, and Zock, Michael. "Graph-Based Representation of Syntagmatic Relations in Lexical Knowledge Bases." *Journal of Computational Linguistics*, vol. 40, no. 3, 2014, pp. 521-537.

4. Hjørland, Birger. "Paradigmatic Relations and Information Science." *Journal of Documentation*, vol. 70, no. 2, 2014, pp. 261-278.
5. Khoo, Christopher, and Joo Chian Na. "Semantic Relations in Information Science." *Annual Review of Information Science and Technology*, vol. 40, no. 1, 2006, pp. 157-228.
6. Lyons, John. *Introduction to Theoretical Linguistics*. Cambridge University Press, 1968.
7. Sahlgren, Magnus. "The Word-Space Model: Using Distributional Analysis to Represent Syntagmatic and Paradigmatic Relations Between Words." *Linguistics Journal*, vol. 2, no. 1, 2006, pp. 37-70.